

## TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA SIFAT KO'RSATKICHLARI TAHLILI

**Baxadirova Dildora Azodovna,**

TDSHU, "G'arb tillari" kafedrasida katta o'qituvchisi

[dildora\\_baxadirova@tsuos.uz](mailto:dildora_baxadirova@tsuos.uz)

[bakhadirovadildora42@gmail.com](mailto:bakhadirovadildora42@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilishning konseptual masalalari tadqiq etilgan. Maqolada an'anaviy o'qitish uslublaridan interfaol va raqamli metodikalarga o'tishning didaktik zaruriyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini modernizatsiyalash, talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini jadallashtirish hamda ta'lim sifatini monitoring qilishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik strategiyalar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** innovatsion pedagogika, ta'lim sifati, o'qitish metodikasi, raqamli transformatsiya, interfaol muhit, konseptual yondashuv, oliy ta'lim, integratsiya, pedagogik strategiya.

**Abstract.** This article examines the conceptual issues of integrating innovative pedagogical technologies in the context of modern educational system transformation. The scientific necessity of transitioning from traditional teaching methods to interactive and digital methodologies is theoretically substantiated. Furthermore, the effectiveness of innovative approaches in modernizing the educational process in higher education institutions, accelerating students' independent learning activities, and monitoring the quality of education is analyzed. As a result of the research, pedagogical strategies and recommendations aimed at improving the overall quality of education have been developed.

**Keywords:** innovative pedagogy, education quality, teaching methodology, digital transformation, interactive environment, conceptual approach, higher education, integration, pedagogical strategy.

**Аннотация.** В данной статье исследуются концептуальные вопросы интеграции инновационных педагогических технологий в условиях трансформации современной системы образования. Научно обосновывается дидактическая необходимость перехода от традиционных методов обучения к интерактивным и цифровым методикам. Также анализируется эффективность инновационных подходов в модернизации учебного процесса в высших учебных заведениях, активизации самостоятельной познавательной деятельности студентов и мониторинге качества образования. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по реализации педагогических стратегий, способствующих повышению качества образовательных услуг.

**Ключевые слова:** инновационная педагогика, качество образования, методика преподавания, цифровая трансформация, интерактивная среда, концептуальный подход, высшее образование, интеграция, педагогическая стратегия.

**Kirish.** Zamonaviy global o'zgarishlar va iqtisodiyotning shiddatli rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yuqori intellektual salohiyatga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Bugungi kunda jahon ta'lim makonida kuzatilayotgan internatsionalizatsiyalashuv, akademik mobillik va ta'lim dasturlarining dinamik o'zgaruvchanligi sharoitida ta'lim sifatini ta'minlash ustuvor yo'nalishga aylangan. O'zbekiston Respublikasida ham uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, unga ilg'or

pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da milliy oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga kiritish bosh maqsad qilib belgilangan.

Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan xorijiy davlatlarning innovatsion tajribalarini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish va o'quv jarayonini modernizatsiyalash sur'atlari nisbatan sust kechmoqda. Pedagogik texnologiya — bu nafaqat texnik resurslar, balki inson omili va tizimli metodlarning o'zaro ta'siri orqali ta'lim shakllarini optimallashtirish jarayonidir. Innovatsion ta'lim esa talabada yangi g'oyalarni yaratish va ilg'or me'yorlarni qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy tayyor bilim berish modelidan talabalarning mustaqil bilim olishi, tahlil qilishi va xulosalar chiqarishiga yo'naltirilgan innovatsion modelga o'tish zaruriyati bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyat o'qituvchidan nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki yangilikka tayyorlik, ijodkorlik va novatorlik darajasini muntazam oshirib borishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi — oliy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-konseptual asoslarini o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish orqali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Metodlar.** Ushbu tadqiqotda oliy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash uchun tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik yondashuv va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida pedagogik faoliyatni yangilashning uch bosqichli modeli (A.Nikolskaya bo'yicha: tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish) hamda innovatsion yondashuvni qaror toptirishning to'rt bosqichli iyerarxiyasi olindi.

Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichma-bosqich metodika asosida tashkil etildi:

**Tayyor metodik tavsifnomalarni adaptatsiya qilish:** Xorijiy tajribada muvaffaqiyatli qo'llanilgan, biroq mahalliy ta'lim muhiti uchun yangi bo'lgan innovatsiyalarni tanlash va tahlil qilish.

**Modifikatsiyalash va tizimga kiritish:** Mavjud o'quv dasturlariga yangi g'oya va metodlarni integratsiya qilish, an'anaviy dars tushunchasini interfaol metodlar bilan boyitish.

**Tizimlashtirish va tajriba-sinov:** Yaratilgan innovatsion metodlarni aniq bir ta'lim muassasasi (masalan, OTM) miqyosida shakl va mazmun jihatidan tizimlashtirib, amaliyotga tatbiq etish.

**Mualliflik konsepsiyasini shakllantirish:** Pedagogning o'qitish va tarbiyalashga oid shaxsiy metodologik tizimini yoki darslik (elektron darslik) modelini yaratish darajasini aniqlash.

Tadqiqotda zamonaviy oliy ta'limning talablaridan kelib chiqib, quyidagi yangi pedagogik yondashuvlar metodologik asos sifatida qo'llanildi: Talabaga yo'naltirilgan yondashuv (Student-Centered Learning): Tadqiqot jarayonida o'qituvchining roli "bilim beruvchi" dan "fasilitator" (yo'naltiruvchi) roliga o'zgarishi tahlil qilindi. Bunda talabalarning mustaqil bilim olish va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy urg'u berildi. Kompetensiyaviy yondashuv: Ta'lim natijalari nafaqat nazariy bilimlar hajmi bilan, balki talabaning kasbiy muammolarni hal qila olish qobiliyati (masalan, buxgalteriya dasturlarida mustaqil ishlash) orqali baholandi. Blended Learning (Aralash ta'lim) unsurlari: Tadqiqot metodikasiga an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini raqamli resurslar (video-ma'ruzalar, IT-park loyihalari) bilan uyg'unlashtirish usullari kiritildi. Pedagogik innovatsiyalar diagnostikasi: Pedagogning yangiliklarni qabul qilishga tayyorlik darajasi quyidagi beshta mezon asosida tahlil qilindi: yangilikni qabul qilishi, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyati, ijodkorligi va yangilikni amaliyotga tatbiq etish tezligi.

Shuningdek, tadqiqotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (elektron darsliklar, IT-park resurslari, virtual laboratoriyalar) va talabalar motivatsiyasini oshiruvchi rag'batlantirish usullarining ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilindi. Innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlashda pedagogning yangilikni qabul qilish darajasi, kommunikativ qobiliyati va ijodkorlik indeksleri asosiy mezon sifatida olindi. Tadqiqot doirasida innovatsion yondashuvni shakllantirishning to'rt bosqichli modeli metodologik asos sifatida olindi. Shuningdek, tadqiqotda pedagogik kuzatuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, an'anaviy ta'lim berish usullari bilan innovatsion-interfaol texnologiyalar qo'llanilgan dars jarayonlari talabalarning amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi bo'yicha o'zaro qiyoslandi. Bunda asosiy e'tibor talabalarning 1S, 1UZ kabi buxgalteriya dasturlari bilan ishlash malakasi va xalqaro til sertifikatlarini (IELTS) olishga tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijasida oliy ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi quyidagi yo'nalishlarda aniqlandi:

**Kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi:** Buxgalteriya yo'nalishi talabalariga "1S" va "1UZ" kabi maxsus dasturlarda ishlashni o'rgatish, ularning bitiruvdan so'ng qo'shimcha kurslarsiz mehnat bozoriga moslashish imkoniyatini yaratadi.

**Til o'rganish samaradorligi:** Filologiya yo'nalishlarida innovatsion metodlar asosida dars o'tilishi talabalarning IELTS kabi xalqaro sertifikatlarni yuqori ballarga egallashiga va qo'shimcha tayyorgarlik kurslariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishga xizmat qiladi.

**Mustaqil ta'lim va motivatsiya:** An'anaviy "tayyor bilim" modelidan voz kechib, interfaol va mustaqil izlanishga asoslangan metodlarga o'tish talabalarda axborotni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Amaliyot bilan integratsiya:** Talabalarni innovatsiya markazlari, IT-parklar va ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya hamda amaliyotga yuborish nazariy bilimlarni hayotiy ko'nikmalarga aylantirishning eng samarali usuli ekanligi tasdiqlandi.

**Pedagogning innovatsion salohiyati:** O'qituvchining yangilikni qabul qilishga tayyorligi, ijodkorligi va novatorlik darajasi ta'lim sifatini oshirishning hal qiluvchi omillari sifatida belgilandi.

Yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash natijasida quyidagi ijobiy ko'rsatkichlarga erishildi: a) Fasilitatsiya samaradorligi: O'qituvchining bilim beruvchidan yo'naltiruvchi (fasilitator) roliga o'tishi talabalarning darsdagi faolligini 30-35% ga oshirdi, bu esa ularning axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirdi. b) Kompetensiyaviy o'sish: Talabalar nafaqat nazariy tushunchalarni o'zlashtirdilar, balki 1S va 1UZ kabi buxgalteriya dasturlarida amaliy masalalarni mustaqil hal qilish darajasiga ko'tarildilar. c) Aralash ta'lim (Blended Learning) natijasi: Raqamli resurslar va IT-park loyihalarining an'anaviy darslar bilan uyg'unlashishi natijasida talabalarning mavzuni o'zlashtirish tezligi va sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. d) Innovatsion tayyorgarlik: Pedagoglarning innovatsiyalarni qabul qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish tezligi bo'yicha o'tkazilgan diagnostika natijalari, yangi metodikalarning dars samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini ko'rsatdi.

**Muhokama.** Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish shunchaki dars jarayonini texnik jihozlash emas, balki ta'lim paradigmalarni tubdan o'zgartirish jarayonidir. Tadqiqotda aniqlangan to'rt bosqichli iyerarxiya (tayyor metodikadan shaxsiy konsepsiyaga o'tish) pedagogning professional rivojlanish trayektoriyasini belgilab beradi. A.Nikolskaya va boshqa tadqiqotchilarning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati ta'lim oluvchida nafaqat bilim, balki yangi ijtimoiy talablarga moslashish ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liq. Maqolada ilgari surilgan IT-parklar va ishlab chiqarish korxonalarini bilan integratsiya g'oyasi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashdagi uzilishlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchining mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy sifat ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan yangi yondashuvlar oliy ta'lim mazmunini tubdan modernizatsiyalash imkonini beradi. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim modeli an'anaviy "passiv tinglovchi" tushunchasini inkor etib, talabani o'quv jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Aralash ta'lim unsurlarining kiritilishi esa, nazariy bilimlarni axborot texnologiyalari (elektron darsliklar, animatsiyalar) orqali yanada vizuallashtirish va tushunarli qilishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida erishilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy mutaxassis nafaqat diplomga, balki mehnat bozorida talab qilinadigan (IELTS, maxsus dasturiy ta'minotlar) real malakaga ega bo'lishi shart.

Pedagogning innovatsion faoliyati esa ushbu jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy omil bo‘lib qoladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: Innovatsiya — sifat omili sifatida: Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta‘lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch bo‘lib, u ta‘lim sifatini monitoring qilish va oshirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Tizimli yondashuv zaruriyati: Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘limni modernizatsiyalash uchun faqatgina texnik bazani yangilash yetarli emas; pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligi va ularning ijodiy salohiyatini oshirish strategik ahamiyatga ega. Amaliy takliflar: Ta‘lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish uchun talabalarni innovatsiyalar markazlariga ekskursiya qilish, soha mutaxassislarini (masalan, Fanlar akademiyasi vakillarini) dars jarayoniga jalb etish va o‘quv dasturlarini bevosita amaliyot (1S, 1UZ dasturlari, IELTS sertifikatitsiyasi) bilan uyg‘unlashtirish lozim. Davlat siyosati bilan uyg‘unlik: Innovatsion rivojlanish vazirligi va soha bo‘yicha qabul qilingan Prezident farmonlari hamda qarorlari ta‘lim tizimiga yangiliklarni joriy etish uchun huquqiy va institutsional asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

**1. Yondashuvlar integratsiyasi:** Talabaga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni integratsiya qilish ta‘lim sifatini oshirishning eng samarali strategik yo‘nalishidir.

**2. Raqamli transformatsiya:** Aralash ta‘lim metodikasini IT-park resurslari bilan boyitish oliy ta‘lim muassasalarini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

**3. Amaliy ahamiyat:** OTMLardagi o‘quv jarayoni bitiruvchilarni qo‘shimcha kurslarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga joylashishini ta‘minlaydigan amaliy ko‘nikmalarga (masalan, IELTS va professional dasturlar) yo‘naltirilishi lozim.

**4. Pedagogik mahorat:** Innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun pedagoglar muntazam ravishda o‘zlarining novatorlik darajasi va ijodiy salohiyatlarini oshirib borishlari zarur.

Kompetensiyaga asoslangan strategiyalarni raqamli resurslar bilan integratsiya qilish global raqobatbardoshlik uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu bitiruvchilarning qo‘shimcha kasbiy tayyorgarliksiz bevosita amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta‘minlaydi

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida"gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi Qarori.
3. Avliyoqulov, N. X., & Musayeva, N. N. (2012). *Yangi pedagogik texnologiyalar* (darslik). Toshkent: "Fan va texnologiya".
4. Muslimov, N. A. (2016). *Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik* (o‘quv-uslubiy majmua). Toshkent.

5. Ibraimovich, I. Kh. (2020). Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 1(1), 6-15.
6. Bakhadirova Dildora, (2021/9), Effective use of modern technologies in foreign language teaching, journal EJEDL, Value 2, pages 12-16, publisher <https://ejedl.academiascience.org>
7. Dildora Azodovna Baxadirova , (2018), Effectivness of teaching drama and litrary texts in language learning classes
8. Bakhadirova Dildora, (2022/1) , Advantages Of Distance Education During The Pandemic, ILMIY-USLUBIY JURNALI, Value 1, 1
9. Makhmudov, A. Kh., & Abdurakhmonov, Z. B. (2021). Ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishning yutuqlari va muammolari. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(CSPI Conference 3), 97-99.
10. Abduganiev, O. T. (2021). Pedagogical conditions and mechanisms of development of social active civil competence in students. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education*, 12(7), 433-442.
11. Bakhadirova Dildora, (2026/02) , Oliy ta'limda innovatsion pedagogic texnologiyalar va ESP o'qitishning samarali integratsiyasi. *Vol. 9 No. 02 (2026): Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali*, <https://worldlyjournals.com/index.php/ituy/article/view/26474>

